
Kimyo sanoatida energiya samaradorligi: “O‘zkimyosanoat” AJning 2025-yil birinchi yarim yillikdagi natijalari - infografika

// 23.07.2025
https://uzkimyosanoat.uz/oz/press/news/kimyo-sanoatida-energiya-samaradorligi-o-zkimyosanoat-ajning



Mamlakat iqtisodiyotining muhim tarmog‘i bo‘lgan sanoat sohasida, xususan, kimyo sanoatida energiya resurslaridan samarali foydalanish va “yashil” texnologiyalarga o‘tishga alohida e’tibor qaratilmoqda. “O‘zkimyosanoat” AJ 2025-yilning birinchi yarim yilligi davomida ushbu yo‘nalishda bir qator amaliy choralarni joriy etdi. Jumladan, yirik korxonalarda energiya auditlari o‘tkazilib, iste’moldagi yo‘qotishlar tahlil qilindi va ularni bartaraf etish uchun texnologik jarayonlar modernizatsiya qilindi. Energiya tejovchi uskunalar o‘rnatilishi, avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimlarining joriy etilishi orqali energoresurslarni sezilarli darajada tejashga erishildi.

Joriy yil yanvar-iyun oylarida tarmoq bo‘yicha tashkiliy-texnik chora-tadbirlarning amalga oshirilishi natijasida 29,2 mln m3 tabiiy gaz va 14,9 mln kVt.s elektr energiyasi tejaldi.

Mamlakatimizda barqaror rivojlanish va ekologiyani muhofaza qilish maqsadida quyosh energiyasidan foydalanish so‘nggi yillarda alohida ahamiyat kasb etmoqda. Quyosh fotoelektr stansiyalarini o‘rnatish orqali an’anaviy energiya manbalariga bo‘lgan yuk kamaytirilmoqda, elektr energiyasi ishlab chiqarishda chiqindisiz, tabiiy resurslarni tejovchi va iqtisodiy jihatdan samarali texnologiyalar keng qo‘llanilmoqda. Bu

jarayonlar nafaqat energetika mustaqilligini oshirishga, balki ishlab chiqarishning ekologik barqarorligini ta’minlashga ham xizmat qilmoqda.

Bu borada “O‘zkimyosanoat” AJ tarmoq korxonalarida amalga oshirilayotgan ishlar natijasida bugungi kunda tarmoq korxonalarida o‘rnatilgan FESlarning umumiy quvvati 12,0 ming kVtni tashkil etmoqda.

Joriy yil yanvar-iyun oylarida FESlar orqali 7,9 mln kVt.s elektr energiyasi ishlab chiqarilib, 320,6 ming kVt.s elektr energiyasi xududiy elektr tarmoqlariga uzatilgan. Ya’ni, 96 foiz ishlab chiqarilgan energiya korxonalarda iste’mol qilingan bo‘lsa, 4 foizi sotilgan.Yil so‘nggiga qadar tarmoq korxonalarida umumiy quvvati 4 510 kVt bo‘lgan FESlarini qurish rejalashtirilgan

Umuman olganda 2025-yilda energiya samaradorligiga erishish bo‘yicha “O‘zkimyosanoat” AJ tarmoq korxonalarida elektr energiyasi va tabiiy gazni tejashga qaratilgan 51 ta tashkiliy-texnik chora-tadbirlarni amalga oshirish rejalashtirilgan. Buning natijasida 70,1 mln m3 tabiiy gaz va 20,2 mln kVt.s elektr energiyasini tejash nazarda tutilgan.

Bu jarayonlar nafaqat ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirishga, balki ekologik barqarorlikni ta’minlashga ham xizmat qilmoqda. “O‘zkimyosanoat” AJ tomonidan amalga oshirilayotgan mazkur islohotlar kimyo sanoatining raqobatbardoshligini oshirish bilan birga, uning global tendensiyalarga mos rivojlanishiga ham zamin yaratmoqda.

“O‘zkimyosanoat” AJ Matbuot xizmati